

## BIOFLAVONOIDLARNING HAYVON ORGANIZMIMGA TA'SIRI

**Mahamatova I.** - talaba

**Bedanov E.**

**Qamardinov M.** - talaba

Ilmiy rahbarlar: **Hayitova B.A.**

**Ubaydullayeva G.B.**

**Samarqand davlat veterinariya meditsina chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bioflavonoidlarning hayvon organizmimga ta'siri o'r ganilgan. Hayvonlarning sog'lom o'sishi va rivojlanishi uchun bioflavonoidlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida bioflavonoidlar (yoki flavonoidlar) o'simliklarda keng tarqalgan tabiiy birikmalar bo'lib, antioksidant xususiyatlarga ega. Ular hayvonlar organizmiga quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatadi: Antioksidant, yallig'lanishga qarshi ta'sir, qon aylanishini yaxshilaydi, immunitetni kuchaytiradi, saratonning oldini oladi, stressni kamaytiradi, metabolizmni yaxshilashni o'r ganiladi. Shuningdek, hayvonlarni sifatli ozuqalar bilan ta'minlash va ularning ozuqa tarkibidagi biologik faol moddalarini to'g'ri balanslash orqali fiziologik ko'rsatkichlarni yaxshilash imkoniyatlari muhokama qilindi.

**Kalit so'zlar:** bioflavonoidlar, hayvonlar, hayvon organizmlari, antioksidant ta'siri, yallig'lanishga qarshi ta'sir, qon aylanishini yaxshilash, immunitetni kuchaytirish, saratonning oldini olish, stressni kamaytirish, metabolizmni yaxshilash

Kirish. Bioflavonoidlar ko'pincha yem qo'shimchalari tarkibida bo'ladi. Ular chorva hayvonlari va uy hayvonlarining sog'lig'ini saqlash va ularning mahsul dorligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Bioflavonoidlar P vitaminlar deb nomlangan moddalar gruhuhi. Ularning organizmiga ta'siri quydaglardan iborat. Antioksidant ta'sir. Bioflavonoidlar erkin radikallarni neytrallashtirib, hujayra zararlanishini oldini oladi. Bu hayvonlarning immunitet tizimini mustahkamlashga va kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Yallig'lanishga qarshi ta'sir. Flavonoidlar yallig'lanishni kamaytiradi va yallig'lanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini oladi. Bu ayniqsa, stressga duchor bo'lgan yoki infektsiyaga qarshi kurashayotgan hayvonlar uchun foydalidir. Qon aylanishini yaxshilash. Bioflavonoidlar qon tomirlarining devorlarini mustahkamlaydi, ularning elastikligini oshiradi va qon aylanish tizimini yaxshilaydi. Bu yurak-tomir tizimi bilan bog'liq muammolar xavfini kamaytiradi. Immunitetni kuchaytirish. Ular vitamin C bilan birlgilikda ishlaganda, hayvonlar organizmida viruslar va bakteriyalarga qarshi kurashishda samaradorlikni oshiradi. Saratonning oldini olish. Ba'zi bioflavonoidlar o'sma hujayralarining rivojlanishini sekinlashtirishga yordam berishi haqida ilmiy dalillar mavjud. Stressni kamaytirish. Bioflavonoidlar asab tizimini tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega bo'lib, hayvonlarning stressga chidamlilagini oshiradi. Metabolizmni yaxshilash. Ular moddalar almashinuvini faollashtirib, energiya hosil bo'lish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Vitamin P (rutin, sitrin) 1936-yilda A.A.Sent-Dyordi tomonidan limon po'chog'idan ajratib olingan. Kapillarlarning o'tkazuvchanlik, chidamlilagini oshirishga oid biologik faollikka ega bo'lgan P vitamin deb nomlangan moddalar guruhini: katexinlar,

xalkonlar, degidroxalkonlar, flavinlar, flavononlar, izoflavonlar, flavonollar va boshqalarni birlashtiradi. Ularning barchasi P vitamini faolligiga ega va tuzilishi bo'yicha asos sifatida xromon yoki flavonning difenilpropanli uglerod skeletlar xizmat qilishi ularning umumiy bioflavonoidlar deb nomlanishini asoslaydi Vitamin P ning fiziologik ta'siri kapillarlar devorini barqarorligini oshirish va o'tkazuvchanligini kamaytirishdan iboratdir. Tabiatda u tarkibida C vitamini uchraydigan qora smorodina, apelsin, limon, na'matak, choy kabi oziq-ovqat mahsulotlarida uchraydi. Vitamin P yetishmasligining alomatlari: umumiy holsizlik, kuchli charchoq, shuningdek, terining qonashid. Qon tomirlarning mo'rtlashuvi (oson ko'karish va qon ketishi). Qon bosimi oshishi.. Umumiy immunitetning pasayishi

Materiallar va uslublar. Tajriba hayvonlari: Tajriba uchun 20ta chinchili quyonlar tanlab olindi. Quyonlar 2 guruhga bo'lingan: Bioflavonoidlar bilan oziqlantirilgan (eksperimental) va oddiy yem bilan oziqlantirilgan (nazorat). Tadqiqot davomiyligi: 8 hafta davomida ozuqaga bioflavonoidlar qo'shilib, o'zgarishlar kuzatildi. Tahlil usullari: Ovqat hazm qilish tizimi faoliyati (ovqatdan o'zlashtirish ko'rsatkichi). Immunologik tahlillar (leykotsitlar soni va immunoglobulin darajasi). O'sish ko'rsatkichlari (o'rtacha tana massasi). Bioflavonoidlar qo'llanganda quyonlarda ozuqani hazm qilish va o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiba nisbatan 10-15% ga yuqori bo'ldi. Ayniqlasa, ozuqani parchalanishi va mineral moddalarni singdirish samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Immun tizimi Eksperimental guruhda immunoglobulinlar (IgA, IgG) darajasi 20% ga ko'tarildi, bu esa quyonlarning kasallikka chidamlilagini oshirganligini ko'rsatdi. Shuningdek, leykotsitlar soni ko'payib, infeksiyalarga qarshi tabiiy himoya kuchaydi. O'sish va rivojlanish Bioflavonoidlar berilgan quyonlarning tana massasi nazorat guruhiba nisbatan 8-10% ga yuqori bo'lib, yemdan foydalanish koeffitsiyenti yaxshilandi. Bu quyonchlik fermalarida iqtisodiy foyda keltirishning muhim omilidir.

**Xulosa.** Hayvonlar fiziologik ko'rsatkichlarini yaxshilash, sifatli ozuqadan foydalanish, stress omillarini kamaytirish va zamonaviy genetik yondashuvlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ular hayvonlar organizmiga quyidagi ijobjiy ta'sirlarni ko'rsatadi: Antioksidant, yallig'lanishga qarshi ta'sir, qon aylanishini yaxshilaydi, immunitetni kuchaytiradi, saratonning oldini oladi, stressni kamaytiradi, metabolizmni yaxshilashni o'rjaniladi. Shuningdek, hayvonlarni sifatli ozuqalar bilan ta'minlash va ularning ozuqa tarkibidagi biologik faol moddalarni to'g'ri balanslash orqali fiziologik ko'r satkichlarni yaxshilash imkoniyatlari muhokama qilind

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Campbell, T. "Broiler Nutrition and Management". Academic Press, 2021.
2. Smith, J. "Stress Reduction in Poultry". Poultry Science Journal, 2020.
3. O. O. Obidov, A. A. Jurayeva, G. Yu. Malikova. "Biologik kimyo" Darslik. «Extremum Press» nashriyoti. Toshkent. 2011 yil.
4. Safin Mars Gabdulxakovich "Biologik va molekulyar biologiya". Darslik. SamDU 2021 yil.
5. Asilova, M. U., Musabaev, E. I., & Ubaydullaeva, G. B. (2014). Viral diarrhea in structure of acute intestinal infections in children. *Journal Infectology*, 3(3), 56-59.